

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2024
№4**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович — юридик
фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович — ю.ф.д.,
профессор.

Ҳўжаев Шохжаҳон Акмалжон ўғли — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой — ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёкубович — ю.ф.н., профессор.

Маҳкамов Отабек Мухтарович — ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна — ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич — ю.ф.д., доц.

Бекков Ихтиёр — ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович — ю.ф.д., проф.
в.б.

Хазратқулов Одилбек Турсунович — юридик
фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович — ю.ф.д.,
профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович — ю.ф.д.,
профессор.

Нарзиев Отабек Саъдиевич — ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш
сўралади:

Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нужаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатида киритилган.

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар,
талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб,
Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик
университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2024 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик
университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган.
Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва
қўлайтириш Тошкент давлат юридик университети рухсати
билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент
давлат юридик университетига мурожаат этилади.
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ
кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Наشريёт муҳаррири: **Н. Ниязова**

Техник муҳаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди — 25.12.2024

Наشريёт ҳисоб табоғи — 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди

Адади — 100 нусха.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ

4/2024

МУНДАРИЖА

МУНДАРИЖА	
Ш.Туйчиева Теоретические основания и критический анализ подхода к урегулированию инвестиционных споров в контексте статьи 63 Закона Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности»	3
У.Шарахметова Укрепление в семье личных и имущественных прав обязанностей супругов на основе принципа равенства	7
Ж.Тўраев Ходимларнинг меҳнат ҳуқуқларига риоя қилиниши бўйича давлат назорати ва текширувининг назарий ва амалий аҳамияти	11
Д. Имомова Определение применимого права для внешнеэкономических сделок в условиях цифрового пространства	15
Х.Шарипова Правовое регулирование облачных технологий в контексте международного сотрудничества	17
I.Abdikhakimov Quantum computing and its impact on cybersecurity: redefining legal frameworks for a post-quantum era	20
I. Rahmatulloyev Prokuratura organlarining fuqarolik huquq va burchlarini amalga oshirishdagi ishtiroki	24
S. Tatar, N. Dilboboev Means of international investment dispute resolution	28
Э.Инамджанова Особенности преподавания коллизионного права в современном образовательном процессе	32
J.Askarov Sun'iy intellekt yordamida sog'liqni saqlashni rivojlantirish: huquqiy takomillashtirish	46
T.Pulatov Digital Financial Assets as an Object of Civil Rights	50
Д.Имамалиева Развитие механизмов альтернативного разрешения споров на международной и национальной арене	57
SH.Almosova Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash usullari va vositalari tahlili	62
A.Akramov A comparative analysis of international legal norms regarding the inheritance of digital property	69
E.Asadov Davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy javobgarlik va uning yuridik tabiati	77
D.Abdullaeva The system of international control over the observance of human rights at work	88
М. Турдалиев Определение и сущность искусственного интеллекта (ии) в контексте международной торгов- ли	93
О.Хазраткулов Рақамли активлар билан боғлиқ муносабатларни фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш масаласида хорижий мамлакатлар тажрибаси	102
Б.Акмалхонов Механизмы защиты права собственности в международном праве	109
Sh.Alamonova Revisiting Public Services under GATS: A Legal Analysis of Commitments and State Discretion	114
Б.Саидов Проблемы гражданско-правового обеспечения кибербезопасности охраняемых объектов: договорные аспекты	118
Sh.Sotvoldiyev Xalqaro tijorat sudlari - nizolarni hal qilishning usuli sifatida	124
А.Вахабов Халқаро хусусий ҳуқуқда — lex voluntatis тамойили	126

Almosova Shahnoza Sobirovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari
kafedrası o'qituvchisi, y.f.f.d.

XALQARO SHARTNOMALAR IJROSINI TA'MINLASH USULLARI VA VOSITALARI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro huquq subyektlari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarning ijrosini ta'minlash borasida xalqaro amaliyotda shakllangan usullar va vositalarning tahliliga bag'ishlanadi. Maqola xalqaro huquqiy hujjatlarda ularni ijro etish tartib-taomillarini tahlil qilgan holda, ularni takomillashtirish masalalarini ham qamrab oladi. Qoida tariqasida, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlashda xalqaro shartnoma bo'yicha majburiyatlarni amalga oshirish uchun maxsus kelishuvlar imzolaniadi. Ularda asosiy shartnoma matni yuzasidan ayrim moddalar ijrosining shakllari va usullari batafsilroq aniqlashtiriladi. Bunday kelishuvlarning obyektlari qatorida, masalan, shartnomaning umumiy maqsadlarini amalga oshirish, o'zaro manfaatli masalalarni hal qilish, shartnomaning aniq qoidalarini amalga oshirish kabi masalalar o'rin oladi. Bundan tashqari, bu borada davlatlar amaliyoti ular tomonidan tuzilgan ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda ifodalangan usullar bilan bir qatorda ular ijrosini ta'minlash mexanizmining vositasi sifatida xalqaro kafolatlar, komissiyalar va maslahatlashuvlar, xalqaro nazorat tahlil qilinib, ushbu vositalarning qaysi hollarda qo'llanilishi amaliy misollar orqali yoritib berilgan. Muallif, shuningdek, davlatlar xalqaro platformada xalqaro shartnomalarni amalga oshirish uchun shart bo'lgan ichki choralarni ham o'rgangan holda, davlatlar amaliyotidan misollar orqali ichki qonunchilikda ham xalqaro shartnomalar yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni umumiy shaklda belgilash amaliyotini tushuntirib beradi.

Kalit so'zlar: xalqaro shartnoma, shartnoma ijrosi, pacta sunt servanda prinsipi xalqaro kafolatlar, komissiyalar va maslahatlashuvlar, xalqaro nazorat.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу сформировавшихся в международной практике методов и инструментов обеспечения исполнения международных договоров, заключенных субъектами международного права. В статье анализируются процедуры их имплементации в международно-правовые документы, а также освещаются вопросы их совершенствования. Как правило, заключаются специальные соглашения, обеспечивающие выполнение международных соглашений. В них более подробно уточняются формы и способы исполнения отдельных статей применительно к тексту основного договора. К объектам таких соглашений относятся, например, такие вопросы, как реализация общих целей соглашения, решение взаимовыгодных

вопросов, реализация отдельных положений соглашения. Кроме того, рассматривается практика государств в этом отношении, а также методы, выраженные в заключаемых ими двусторонних и многосторонних международных соглашениях, как средства обеспечения их выполнения, международных гарантий, комиссиях и консультациях, международном контроле, а в каких случаях эти используемые инструменты анализируются на практических примерах. Автор также рассматривает внутригосударственные меры, необходимые для реализации международных договоров на международной площадке, и поясняет практику определения во внутреннем законодательстве мер, подлежащих реализации в связи с международными договорами, в общей форме на примерах из практики государства.

Ключевые слова: международный договор, исполнение договора, принцип pacta sunt servanda, международные гарантии, комиссии и консультации, международный контроль.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the methods and instruments for ensuring the execution and implementation of international treaties concluded by subjects of international law that have been formed in international practice. The article analyzes the procedures for their implementation in international legal documents, and also highlights issues of their improvement. As a rule, special agreements are concluded to ensure the implementation of the provisions of international treaties. They specify in more detail the forms and methods of implementing individual articles in relation to the text of the main treaty.

The objects of such agreements include, for example, issues related to the achievement of the general goals of the treaty, the solution of mutually beneficial problems, as well as the implementation of individual provisions of the agreement. In addition, the practice of states in this context is considered, as well as the methods expressed in the bilateral and multilateral international agreements concluded by them, such as means of ensuring the execution of treaties, international guarantees, commissions and consultations, international control. The tools used are analyzed using practical examples. The author also considers domestic measures necessary for the implementation of international treaties in the international arena, and explains the practice of determining in domestic legislation the measures to be implemented in connection with international treaties. These measures are presented in a generalized form with examples from state practice.

Keywords: international treaty, implementation, pacta sunt servanda principle, international guarantees, commissions and consultations, international control.

Kirish

Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash, odatda,

ijtimoiy voqelik, ya'ni huquqiy mexanizm sifatida gavdalaniriladi. Bu, o'z navbatida, uning xalqaro huquq bilan o'ralgan murakkab huquqiy hodisa ekanligi faktidan kelib chiqadi. Shu o'rinda, ta'kidlash lozimki, huquqiy mexanizm deganda huquqiy tizimda keng tarqalgan va ijtimoiy munosabatlarga maxsus huquqiy ta'sir ko'rsatish bosqichida juda muhim ahamiyat kasb etadigan obyektiv ravishda mavjud bo'lgan tartibga soluvchi hodisalar jamlanmasi tushuniladi. Uning asosiy jihatlari — huquqiy ta'sir ko'rsatishda harakatlanishi boshlanadigan obyektiv ravishda amalda bo'lgan hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Mazkur qarash tadqiqot doirasiga implementatsiya qilinadigan bo'lsa, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmi xalqaro platformada davlatlararo munosabatlar va davlatlar ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarga maxsus huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayonida fundamental rol o'ynaydigan obyektiv ravishda shakllangan tartibga soluvchi hodisalar birlashmasi ekanligi xulosa qilinadi. Davlatlarning asosiy maqsadlari va qonuniy manfaatlarining aksariyati aynan ma'lum huquqiy mexanizmlarning mavjudligi tufayli amalga oshadi. Qayd etish lozimki, huquqiy mexanizm — bu hali yetarli darajada o'rganilmagan ilmiy voqelikdir. Binobarin, xalqaro shartnomalarning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan mexanizmga nisbatan ham mazkur izoh qo'llanilsa bo'ladi, bunga uning davlatlar huquqiy tengligi hamda tashqi siyosati va manfaatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro bog'liq ekanligini asosiy sabab sifatida talqin qilish mumkin.

Yuqoridagi qisqa va lo'nda tahlildan ko'rish mumkinki, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmi kompleks huquqiy hodisa o'laroq, bir qator tarkibiy tuzilmalardan iborat tuzilishga ega ekan. Bu, birinchi navbatda, uning mexanizm sifatidagi huquqiy tabiatidan hosil bo'ladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash elementlari deb qaraladigan pacta sunt servanda, bona fide, qo'shimcha shart (ogovorka) institutlaridan tashqari, mexanizmi harakatga keltiradigan uning vositalari va usullari ham mavjud. Xalqaro shartnomalar yuzasidan olingan xalqaro majburiyatlarning vijdonan, sodiqlik bilan amalga oshirilishi xalqaro-huquqiy tartib va xalqaro munosabatlarning barqarorligi uchun asos deb qaraladi hamda e'tirof etiladi. Binobarin, hozirgi integratsiyalashuv jadal tus olgan bosqichda pacta sunt servanda prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan mazkur prinsip xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmi erkin amalga oshirish usuli hisoblanadi. Lekin prinsipning amalga oshirish jarayoniga xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyatlarini (davlatlarning suveren tengligi prinsipi, xalqaro huquqdagi normalar yaratish bilan bog'liq alohida jihatlari) e'tiborga olgan holda yondashilganda pacta sunt servandani ta'minlash uchun maxsus choralarga murojaat qilish zarur ekanligini ko'rish mumkin.

O'z navbatida, 1969-yildagi "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena Konvensiyasi pacta sunt servandaning ma'nosiga izoh berishdan tashqariga chiqilmagan. Ya'ni, shartnomada uning amalga oshirish tartib-taomili masalasi ochiq qolgan. Bu bir tomondan,

davlatlarning majburiyatdan qochishlari bilan talqin qilinsa, boshqa tomondan, prinsipning xalqaro amaliyotga implementatsiya qilinishida aniqlikdan mahrum qiladi. Shu bilan birga, qariyb hamma xalqaro shartnomalarda, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bo'lishligidan qat'i nazar, tomonlarning huquq va majburiyatlari belgilanishi bilan bir qatorda shartnomani ijrosi yuzasidan amalga oshirishga ko'maklashishga qaratilgan turli chora-tadbirlar to'g'risidagi normalar qayd etilishi tabiiy holatga aylangan. Shartnoma matnidagi band sifatida mustahkamlanganlik fakti esa ularga majburiylik xususiyatini taqdim etadi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmini amalga oshirish bo'yicha majburiy usul deb qaralsa bo'ladi. Bularga, xususan, xalqaro kafolat, nazorat, konferensiyalar chaqirish, ichki, milliy qonun-hujjatlarini qabul qilish kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda, qoida tariqasida, xalqaro shartnomalarning bajarilishini ta'minlash yoki amalga oshirishga ko'maklashish vositalari (choralari)ning ochiq ro'yxati keltiriladi. Bir qator mualliflar "xalqaro shartnomalarda qayd etiladigan xalqaro-huquqiy normalarni amalga oshirishga ko'maklashish yuzasidan xalqaro va ichki, milliy chora-tadbirlar" [1, 70-b.], "pacta sunt servanda prinsipini amalga oshirish kafolatlari" [2, 97-b.] tizimini hamda "xalqaro majburiyatlarni ijro etish kafolatlari" ning [3, 222-b.] barcha turlarini ajratib ko'rsatishadi.

Zamonaviy xalqaro huquq bosqichi hamda shakllangan xalqaro amaliyot tomonidan kafolatlari, konferensiyalar va komissiyalar, nazorat kabi xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlar amalga oshirilishini ta'minlashning xalqaro huquqiy vositalari qayd etiladi. Bundan tashqari, xalqaro shartnomalar bajarilishini ta'minlash bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lgan huquqbuzarliklar uchun xalqaro javobgarlik institutining ta'sirini ham aytish darkor. Xalqaro shartnomalar, shuningdek, uning ba'zi normalarini amalga oshirish uchun alohida maxsus kelishuv tuzishni ham nazarda tutadi. Ayrim huquqiy adabiyotlarda xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash masalasi yuzaga kelgan taqdirda, xalqaro platformada tuzilgan xalqaro tashkilotlarning ahamiyati va ta'siri mustahkamlangan. Buning sababi shundaki, ularning organlari, ta'sis nizomlariga binoan, ko'p hollarda shartnoma majburiyatlarini amalga oshirish masalalarini ko'rib chiqish yuzasidan vakolatli maqomda bo'ladi. Shu bilan birga, shartnoma qoidalariga rioya etilishini va bajarilishini ta'minlash uchun maxsus institutsional qo'mitalar tuziladi. Xususan, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktning 28-moddasiga ko'ra, shartnoma matniga muvofiqlik yuzasidan taqdim etiladigan ma'ruzalarini ko'rib chiqish funksiyasi yuklatiladigan Inson huquqlari qo'mitasi shakllantirilgan. "Irtiq kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi xalqaro konvensiyaning 8-moddasi asosida 1970-yilda tuzilgan hamda konvensiya qoidalarini ishtirokchi davlat milliy qonunchiligida qanday aks ettirilayotganligi to'g'risida to'rt yilda bir marta taqdim etiladigan ma'ruzani ko'rib chiqish vazifasi yuklatilgan Irtiq kamsitishlarni tugatish qo'mitasi

BMT tizimidan o'rin olgan. Ko'rish mumkinki, mazkur va shunga o'xshash vaziyatlarda xalqaro tashkilotlar xalqaro shartnomaning amalga oshirilishi yuzasidan nazorat qilish funksiyalarini o'zlariga oladilar, ya'ni ular shartnoma ijrosini ta'minlash vositasi emas, aksincha, uning subyekti sifatida harakat qilishadi.

Ya'ni, shartnomalar bo'yicha muvofiqlikni ta'minlash choralari nisbatan shunday mulohaza qilish mumkinki, ular shartnoma majburiyatlarini majburiy amalga oshirish vositasi emas, balki amalga oshirishga ko'maklashish vositasidir. Ular, xalqaro huquqiy normalarning tegishli huquqiy kafolati uchun, shartnoma normalarini davlatlarning majburiy kuchi bilan ta'minlash choralari (javobgarlikning muqarrarligi, sanksiyalarni qo'llash imkonini) bilan to'ldirilishi lozim.

Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmining ilk vositasi – xalqaro kafolatlar deb qayd etiladi. Ilmiy adabiyotlarga nazar tashlansa, xalqaro kafolatlar deganda ishtirokchilarni ular o'rtasida tuzilgan shartnomani bajarishga undash uchun davlat [4, 113-b.] yoki davlatlar guruhi o'zlari bog'liq bo'lgan hamma narsani qilishga majburiyat olishi belgilanadigan hujjat sifatida yoki davlat yoki davlatlar guruhi ishtirokchini yoki ishtirokchilarni tuzilgan shartnomani amalga oshirishga undash uchun barcha zarur choralarni ko'rishga kafolat berish yoki kafolatlashni nazarda tutuvchi xalqaro hujjat [5, 353-b.] tushunilishiga guvoh bo'lish mumkin.

Boshqacha so'zlar bilan aytganda, xalqaro kafolat o'zida davlat yoki bir guruh davlatlarning kafilligi yoki kafolatini nazarda tutgan holda ishtirokchini yoki ishtirokchilarni kelishilgan shartnomani bajarishga undash maqsadida barcha zarur choralarni ko'rishni o'z ichiga olgan xalqaro-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ya'ni, bu xalqaro hujjat bo'lib, uning subyektlari shartnomaning ayrim ishtirokchilari hamda uning obyekti esa ishtirokchi-davlatni kelishilgan shartnomani bajarishga undash uchun ko'zda tutilgan barcha zaruriy chora-tadbirlarni ko'rish hisoblanadi. Xalqaro huquq nazariyasi va amaldagi shakllangan xalqaro amaliyotga binoan, kafolatning quyidagi turlari mavjud:

- Oddiy (individual): kafolatchi bir davlat
- Murakkab: kafolatchi bir qator davlatlar

Bunda, ta'kidlash joizki, kafolatning birinchi turida uchinchi davlatning matndan tashqariga chiqmagan holda shartnoma bajarilishi kafolati nazarda tutiladi. Ikkichisida esa kafolat uchinchi davlatlardan kelib chiqadi, o'zaro yoki jamoaviy bo'ladi. Xususan, 1925-yilda Germaniya, Belgiya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya o'rtasida kelishilgan "O'zaro kafolat haqida"gi Lokarn shartnomasi ikkinchisiga misol sifatida keltirilishi mumkin. Uning ishtirokchilari Germaniya va Belgiya o'rtasidagi, Germaniya va Fransiya orasidagi chegara hududlarning daxlsizligi va hududiy status-kvo maqomining saqlanishi yuzasidan individual va jamoaviy kafolatlarni o'z zimmalariga olganlar.

Qayd etish kerakki, uchinchi davlat yoki uchinchi davlatlar tomonidan kafillik shaklidagi kafolat ushbu shartnomada bevosita ishtirok etmaydigan va undan

manfaatdor bo'lmagan davlatlardan kelib chiqish lozim. Ya'nikim, kafolatning murakkab shaklida kafillik shartnomaga nisbatan ishtirokchi-davlat maqomida bo'lgan xalqaro huquqning mustaqil aktori zimmasiga yuklanmaydi. Yuqorida keltirilgan Lokarno Shartnomasi obyektida nazarda tutilgan chegara hududlar Germaniya, Belgiya, Fransiya davlatlarini bir oraga keltirsa-da, uning murakkab kafilligi Buyuk Britaniya, Italiya davlatlariga taqdim etilgan. O'zaro kafolat berish orqali shartnoma tomonlarining har biri shartnoma matnlarida mustahkamlangan majburiyatlar buzilgan taqdirda uni amalga oshirishga undash choralari bir-birlariga nisbatan ko'rilishini kafolatlaydi. Murakkab kafolatning jamoaviy shaklida shartnomaga a'zo davlatlarning shartnoma matnidani tashqariga chiquvchiga qarshi birgalikda harakat qilish majburiyatini, ya'ni uni shartnomaga rioya qilishga majburlashni nazarda tutadi. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash bo'yicha jamoaviy kafolatlar, xususan, BMTning Ustavida (aynan VII bobi "Tinchlikka tahdidlar, tinchlikni buzish va tajovuzlik harakatlariga nisbatan harakatlar", 39-51-moddalar) ko'zda tutilgan hamda keng ko'lamli chora-tadbirlar tizimini, shu jumladan majburiy xarakterni ifoda etadi.

Xalqaro kafolatlarning amaliy namoyon bo'lish holatiga to'xtalganda, xalqaro kafolatlar quyidagi shakllarda rasmiylashtirilishini ko'rish mumkin:

- tegishli shartnomaning alohida moddasi;
- shartnomaga qo'shimcha protokol;
- boshqa shartnomaning amalga oshirilishini kafolatlaydigan maxsus kelishuv.

Davlatlarning shartnoma amaliyotini tahlil qilish orqali keng ko'lamli masalalar yuzasidan xalqaro shartnomada alohida modda sifatida rasmiylashtirilgan o'zaro kafolatlardan ustun foydalanish holatiga guvoh bo'lish mumkin. Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan Lokarno shartnomasi uchinchi shakl bilan rasmiylashtirilganligini aytib o'tish darkor. Davlatlar amaliyoti tahlilining shakllantirgan manzarasida keng ko'lamli masalalar yuzasidan kafolatlar kelishilayotgani va olinayotganligi ta'kidlangan edi. Xususan, Yevropa Kengashining komissiyasi va Belarus Respublikasining Hukumati, Rossiya Federatsiyasi Hukumati, Ukraina Respublikasi Hukumati o'rtasidagi "Chernobil atom elektr stansiyasidagi avariya oqibatlarini bilan bog'liq masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlik to'g'risida"gi xalqaro shartnomaning 3-moddasiga binoan, ishtirokchilar mazkur kelishuv doirasida o'zlari yoki ishtirok etuvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat natijalari faqat tinch maqsadlarda foydalanilishini e'lon qiladilar hamda kafolatlaydilar[6, 3-b.].

Shuningdek, Belarus Respublikasi va Eron Islom Respublikasi o'rtasidagi "Ekstraditsiya to'g'risida"gi shartnomaning 14-moddasida, agar talab qiluvchi tomon talab qilinayotgan tomonning fikriga ko'ra o'lim jazosi amalga oshirilmasligiga yetarlicha kafolat bermasa, ekstraditsiya rad etilishi mumkinligi [7, 2-b.] mustahkamlangan. "Iqtisodiy ittifoq tuzish to'g'risida"gi shartnomaning 29-moddasida ishtirokchi-davlatlar mazkur

shartnomani ijro etish uchun o'zaro javobgar bo'ladilar hamda uning amalga oshirilishini xavf ostiga qo'yadigan har qanday qadamlardan voz kechishlari [8, 2-b.] qayd etilgan. Shartnoma matnining keyingi qismlarida esa tomonlar qabul qilingan majburiyatlarni amalga oshirmaganlik uchun sanksiyalar tizimi haqida maxsus bitimlar tuzishi haqida so'z boradi.

Shu bilan birga, ayrim shartnomalarda ularning ishtirokchilari shartnoma qoidalaridan tashqariga chiqadigan va uning maqsadlariga erishish yo'lida to'sqinlik qiladigan harakatlardan voz kechishlariga e'tibor qaratilib, maxsus modda bilan huquqiy ifodasini topadi (xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari o'rtasida kelishilgan "Erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risida"gi Bitimning 4-moddasida).

Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmining vositasi sifatida ikkinchi o'rinda — komissiyalar va maslahatlashuvlar turadi. Bunda, xalqaro shartnomalarning bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida maxsus organlar (komissiyalar) tashkil etish va maslahatlashuvlar o'tkazish, qoida tariqasida, shartnomalarning o'zida nazarda tutiladi hamda mazkur tartib xalqaro hamkorlikning turli sohalarida ham qo'llaniladi. "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorligi to'g'risida"gi Bitimning 13-moddasida tomonlar yoki ularning vakolatli organlari vakillari, agar zarurat vujudga kelsa, mazkur bitim asosida hamkorlikni mustahkamlash va samaradorligini oshirish masalalarini ko'rib chiqish uchun ishchi uchrashuvlar va maslahatlashuvlar o'tkazishlari qayd etilgan. "Belarus Respublikasi va Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnomaning 16-moddasiga muvofiq, ahdlashuvchi tomonlar, zarur bo'lganda, ikki tomonlama munosabatlar masalalari va o'zaro manfaatli ko'p tomonlama muammolar bo'yicha fikr almashish maqsadida maslahatlashadilar [9, 2-b.]. Shuningdek, tomonlarning o'zaro kelishuvi natijasida ikki tomonlama hamkorlikning ayrim masalalarini ko'rib chiqishga mo'ljallangan komissiya tuzilishi belgilangan.

Xalqaro shartnomada komissiyaning muntazam ravishda ishlashi yoki, kerak bo'lganda, uni chaqirish imkoni ko'zda tutiladi. Xususan, "Atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasidagi hamkorlikning asosiy tamoyillari to'g'risida"gi Bitim xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlashning mazkur vositasiga kelar ekan, ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama faoliyatni tartibga solish uchun ishtirokchilar tomonidan tegishli tashkiliy tuzilmalar (xususan, komissiyalar) tashkil etilish variantini ifoda etadi. Shuningdek, maslahatlashuv masalasida esa yiliga bir marta yoki boshqa kelishilgan vaqtda davlatlarning vakolatli organlari tomonidan taqdim etilgan iltimosnomalar asosida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, komissiyalar va maslahatlashuvlar shartnoma tomonlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazish, shartnomaning ayrim qoidalarini qo'llash bo'yicha o'z pozitsiyalarini muvofiqlashtirish, ularni amalga oshirish tartiblarini ishlab chiqish va aniqlashtirish imkonini beradi.

Muhokamadagi mavzu bo'yicha navbatdagi vosita sifatida xalqaro konferensiyalar ko'zga tashlanadi. Shartnomaga a'zo davlatlarning xalqaro konferensiyalari shartnomaning amal qilishini, uning bajarilishini va alohida qoidalarini ko'rib chiqish va shartnoma maqsadlarini amalga oshirish darajasini aniqlash uchun tashkillashtiriladi. O'z navbatida, xalqaro shartnomaga ishtirokchi bo'lgan davlatlar konferensiyasini chaqirish shartnoma matni qoidalarida nazarda tutiladi. Unda konferensiyani chaqirishdan maqsad hamda vaqt masalasi aniqlashtirilishi mumkin. Shunga muvofiq ravishda, shartnomalar konferensiyaning dastlabki yig'ilish sanasini, uni chaqirish davomiyligini, shuningdek, agar zarurat bo'lsa, uni tashkillashtirish imkoniyatlarini belgilashi mumkin. Jumladan, "Yevropada an'anaviy qurolli kuchlar to'g'risida"gi Shartnomaning 21-moddasi 1-paragrafida konferensiyalar shartnoma kuchga kirgandan boshlab 46 oy o'tgandan so'ng hamda bundan keyin har besh yilda yig'ilishi [10, 7-b.] bayon etilgan.

Xalqaro amaliyotning umumiy asoslariga ko'ra konferensiya chaqirishdan ko'zlangan maqsad turli-tuman bo'lishligini xulosa qilish mumkin. Binobarin, umumiy maqsadlar yoki alohida maqsadlar aniqlashtiriladi. Yuqoridagi shartnoma 21-moddasida mazkur shartnoma bajarilishini ko'rib chiqish maqsadida chaqirilishi huquqiy norma sifatida mustahkamlangan. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, chaqiriladigan xalqaro konferensiyaga xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlashning vositasi maqomi shartnoma matnida to'g'ridan-to'g'ri bayon etilgan. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda konferensiyalarning quyidagi funksiyalari muhokama qilinadi:

- o'aniq moddalari harakatlarini ko'rib chiqish;
- oishtirokchilarning kengayishiga ko'maklashish;
- otavsiyalar ishlab chiqish;
- oyangi kelishuvlar tuzishga ko'maklashish;
- oijrosini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'llari va choralarini ishlab chiqish.

Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlashda, shuningdek, ba'zi hollarda, xalqaro shartnoma bo'yicha majburiyatlarni amalga oshirish uchun maxsus kelishuvlar imzolanadi. Ularda asosiy shartnoma matni yuzasidan ayrim moddalar ijrosining shakllari va usullari batafsilroq aniqlashtiriladi. Bunday kelishuvlarning obyektlari qatorida, masalan, shartnomaning umumiy maqsadlarini amalga oshirish, o'zaro manfaatli masalalarni hal qilish, shartnomaning aniq qoidalarini amalga oshirish kabi masalalar o'rin oladi. Misol uchun, "Belarus Respublikasi va Armaniston Respublikasi o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnomani olish mumkin. Unga ko'ra, ahdlashuvchi tomonlar mazkur shartnoma qoidalarining amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, shuningdek o'zaro manfaatli, boshqa masalalar yuzasidan zaruriyat tug'ilganda, alohida tartibda ikki tomonlama xalqaro kelishuvlar tuzadilar [11, 1-b.].

Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash masalasining navbatdagi asosiy institutsional vositasi — xalqaro nazoratdir. Uning mazmuni shundaki, davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning davlatlar tomonidan qabul qilingan

shartnoma majburiyatlarining aniq va qat'iy amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida bajarilishini tekshirish yuzasidan kelishilgan faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Ya'nikim, xalqaro tashkilotlarning faoliyati bo'lib, uning nazorat obyekti shartnomaning unda majburiyatlaridan tashqariga chiqmagan holda amalga oshirilish holati hisoblanadi. Mazkur ijroni ta'minlash vositasidan boshqa choralari yetarli bo'lmagan yoki qo'llash imkonsiz bo'lgan hamkorlik sohalarida qo'llaniladi hamda shartnomalar ijrosini ta'minlashning asosiy vositalari biri sifatida qaraladi.

Xalqaro nazorat quyidagi sohalarida qo'llanilishi amaliyotda kuzatiladi: inson huquqlarini himoya qilish; qurolsizlanish va qurollarni cheklash; atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish; mehnat to'g'risidagi konvensiyalar; boshqa maxsus masalalar bo'yicha kelishuvlar. Shundan kelib chiqqan holda, ya'ni nazorat obyekti o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, har shartnomada nazoratning shakli va metodi farqlanadi.

Uning shakllari quyidagilardan iboratligi xulosa qilinadi:

- xalqaro tashkilotlar doirasida nazorat organlarini tashkil etish;
- davlatlar tomonidan maxsus nazorat organlarini shakllantirish;
- milliy organlar va vositalar bilan nazorat qilish;
- xalqaro va milliy organlar vositalarning kombinatsiyasi.

Uning metodlariga esa ma'lumotlar almashish, hisobotlar va ma'ruzalarni taqdim etish, nazorat qilish, nazorat qilinadigan obyektlarga tashrif buyurish, nazorat punktlarini o'rnatish, maslahat berish, shikoyatlarni ko'rib chiqish va boshqalar. Xususan, "Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish to'g'risida"gi shartnomani va hamjamiyat doirasidagi boshqa shartnomalar va qarorlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish hamjamiyat organlari zimmasiga yuklatilgan [12, 3-b.].

Shartnoma amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xalqaro nazorat asosan tashkil etilishi xalqaro shartnomada nazarda tutilgan maxsus qo'mitalar yoki komissiyalar yoxud ma'lum bir shartnomada tegishli funksiyalarni o'z zimmasiga olgan xalqaro tashkilotlar va ularning organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan, o'z zimmasiga olgan xalqaro tashkilot sifatida MAGATening "Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida"gi shartnomasiga muvofiq tekshiruvlarni amalga oshirish orqali mazkur shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qilish vakolatiga ega [13, 2-b.] ekanligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, maxsus tashkilotlarni shakllantirish amaliyotini "Kimyoviy qurollarni ixtiro qilish, ishlab chiqarish, to'plash va ulardan foydalanishni taqiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risida"gi Konvensiyada govuh bo'lish mumkin. Unga ko'ra, ishtirokchilar tomonidan shartnoma normalariga rioya etilishi ustidan xalqaro nazoratni amalga oshirish uchun tashkilot shakllantirish kelishilgan [14, 1-b.].

Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash mexanizmining oxirgi vositasi sifatida ichki davlat choralari tan olinadi.

Xalqaro-huquqiy usullardan tashqari, shartnomalar, ko'p hollarda, davlatlarning milliy darajada qabul qilinishi shart bo'lgan, ularni amalga oshirishga ko'maklashish bo'yicha, ichki choralarni nazarda tutadi. Xususan, "Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risida"gi Vena Konvensiyasida ishtirokchi-davlatlar shartnoma normalari ijrosini amalga oshirish uchun tegishli qonunchilik yoki ma'muriy choralarni ko'radilar [15, 2-b.] – deb mustahkamlangan.

Boshqacha qilib aytganda, xalqaro huquq normalarini va ular tomonidan xalqaro majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan davlat organlari majmuasi amalga oshirishning ichki tashkiliy-huquqiy mexanizmini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda, xalqaro shartnomalar qoidalarining bajarilishini ta'minlash choralari mexanizmini shartli ravishda quyidagilarga ajratish darkor: 1) tashkiliy xarakterdagi tadbirlar; va 2) davlat tomonidan tegishli qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish. Bunda, xalqaro shartnomalar bo'yicha olingan majburiyatlarni amalga oshirish masalalari qonunchilik darajasida (xalqaro shartnomalar to'g'risidagi qonun hujjatlarida) har tomonlama tartibga solinadi. Ya'nikim, masalalarga yanada chuqurroq nazar tashlagan holda rivojlantiriladi hamda qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda maxsuslashtiriladi.

Subyekt uning alohida organlari emas, aksincha, butun bir davlat bo'lgani bilan ham, xalqaro shartnoma normalarini davlat ichida amalga oshirish jarayonida tegishli organlar belgilanadigan majburiyatlarni oladilar. Bundan ko'rish mumkinki, qonunchilik darajasida mas'uliyat davlat organlari zimmasiga yuklanar ekan. Xususan, Belarus qonunchiligiga binoan, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash yuzasidan ko'riladigan chora-tadbirlarga — Belarus Prezidenti, Milliy Majlis (ya'ni parlament), Vazirlar Kengashi va davlat organlarining rahbarlari javobgar hisoblanishadi. Qozog'iston miliy huquqi bo'yicha esa — Qozog'iston Prezidenti, Hukumati mas'ul deb belgilanadi. Darhaqiqat, qabul qilingan huquq nazariyasi va amaliyoti bo'yicha davlatlarda xalqaro shartnomalarning bajarilishini umumiy kuzatish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish vazifasi — Davlat Hukumatiga topshiriladi.

Xalqaro platformadagi davlatlar o'rtasidagi kelishuvlarga qaralsa, xalqaro shartnomalar davlatlar amalga oshirishi shart bo'lgan quyidagi ichki choralarni nazarda tutishini xulosa qilish mumkin:

- tegishli xalqaro shartnomalar qoidalarini bajarishga qaratilgan qonunlar qabul qilish;
- qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish;
- ma'muriy-tashkiliy hujjatlarni qabul qilish va boshqa zarur ichki choralarni ko'rish;
- ichki tartibning barcha zarur choralarni ko'rish (ham qonunchilik, ham ma'muriy tartibda);
- shartnoma normalaridan tashqariga chiqadigan qonunlar yoki ma'muriy-tashkiliy hujjatlarni bekor qilish;
- normalarni buzganlik uchun sanksiyalarni qo'llash;
- shartnoma bajarilishini ta'minlash uchun maxsus

ichki organlar yoki xizmatlarni shakllantirish;

shartnoma majburiyatlarini amalga oshirish uchun chiqariladigan qonunchilik va ma'muriy-tashkiliy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish.

Bevosita shartnoma matnida yuqorida keltirilgan choralar ham ulardan biri, ham bir nechta shaklida ifoda etilishi mumkin. Bunga misol sifatida Belarus, Qozog'iston, Rossiya Hukumatlari o'rtasidagi "Intellectual mulk huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasidagi yagona prinsiplar to'g'risida"gi shartnomani olish mumkin. Unda Bojxona Ittifoqining yagona bojxona hududida kontrafakt (qalbaki) tovarlar aylanmasini bostirish bo'yicha qonunchilik choralarini, internet olamida intellektual mulk huquqlarining buzilishiga qarshi kurashish bo'yicha yagona chora-tadbirlarni belgilashni, tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, sudning yakuniy qarorlari hamda ma'muriy-tashkiliy qarorlar umumiy qo'llanilishi to'g'risidagi ma'lumot berishni mustahkamlaydi. Shunga monand ravishda, ichki qonunchilikda ham xalqaro shartnomalar yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni umumiy shaklda belgilash amaliyoti ham mavjud. Xususan, Belarus huquqi bo'yicha, davlat tomonidan qonun hujjatlarni shartnomaga muvofiqlashtirish hamda shartnoma normalari ijrosi uchun zarur hisoblangan boshqa choralarni ko'rilishi [16, 209-b.] belgilanadi. Qozoq huquqida esa qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish yoki o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki ularning yuridik kuchini tugatish nazarda tutiladi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil orqali shuni xulosa qilish mumkinki, xalqaro-huquqiy hujjat yuridik kuchi nuqtai nazari bilan qaralganda pakt, umumiy akt, konvensiya, charter, status, deklaratsiya, shartnoma deb nomlanmasin bir xil maqomda bo'ladi. O'z navbatida, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash masalasi huquqning murakkab mexanizmi sifatida o'zi bilan huquqiy ta'sir ko'rsatish va harakatlanishni amalga oshiradigan tarkibiy elementlarni ifoda etadi. Binobarin, mexanizm huquq hodisasi o'laroq ma'lum bir shakl-shamoyilga, ya'ni elementlar, usullar, vositalarga ega bo'ladi. Elementlari qatoriga pacta sunt servanda, bona fide, ogovorkalar kiritilgan bo'lsa, shakl munosabati bilan erkin va majburiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Birinchisida xalqaro shartnoma orqali olingan majburiyatlarning vijdonan, sodiqlik bilan amalga oshirilishi ko'zlangan bo'lib, bu pacta sunt servanda instituti bilan to'g'ridan-tog'ri bog'liq deb sanaladi. Ikkinchisining kelib chiqishi esa shartnomada uning ijrosi yuzasidan ko'maklashishga qaratilgan turli chora-tadbirlar haqidagi normalarga borib taqaladi. Aynan shu jihat bilan ularning majburiylik xarakteri shakllanadi. Bularga xalqaro kafolatlar, komissiyalar va maslahatlashuvlar, xalqaro konferensiyalar, xalqaro nazorat, ichki davlat choralari o'rin olishi tahlil davomida aniqlashtirildi.

Shu bilan birga, xalqaro shartnoma bo'yicha majburiyatlarni amalga oshirish uchun maxsus kelishuvlar imzolash amaliyotidan ham davlatlar foydalanadilar. Shakllangan davlatlararo hamkorlik va xalqaro

shartnomalar amaliyotiga nazar tashlab aytish joizki, majburiy va erkin shakllariga va ularning vositalariga bir-biridan ajratib ustunlik berish to'g'ri munosabat deb qaralmaydi. Zero, har birining xalqaro shartnomaga qo'llaniladigan va qo'llanilish taqozo etiladigan maxsus xususiyatlari shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Эффективность норм международного права / Л.Х. Мингазов. – Казань: Изд-во Казанского ун-та, 1990. – с. 70 // https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_000261962/
- 2.Советское право и международный договор / В.Г. Буткевич. – Киев: Вища школа, 1977. – с. 97
- 3.Курс международного право: в 6 т. – М.: Наука, 1968. – Т. IV: Основные институты и отрасли современного международного права. – с. 222
- 4.Право международных договоров: действие и применение договоров / А.Н. Талалаев. – М.: Междунар. отношения, 1985. – с. 113
- 5.Международное право: учеб. / Отв. ред. А.Н. Вылегжанин. – М.: Высш. образование, Юрайт-Издат, 2009. – с. 353
- 6.Соглашение о международном сотрудничестве по вопросам, связанным с последствиями аварии на Чернобыльской АЭС, 23 июня 1992 г. – <https://docs.cntd.ru/document/901745974>
- 7.Договор между Республикой Беларусь и Исламской Республикой Иран о Быдаче – <https://normativka.by/lib/document/500132475>
- 8.Договор о создании Экономического союза – <https://docs.cntd.ru/document/1900462>
- 9.Договор между Республикой Беларусь и Туркменистаном о Дружбе и Сотрудничестве от 17 мая 2002 года
- 10.Treaty on Conventional Armed Forces in Europe – <https://www.nti.org/wp-content/uploads/2021/09/cfe.pdf>
- 11.Договор о Дружбе и Сотрудничестве между Республикой Беларусь и Республикой Армения – <https://npa.espot.by/documents/h10100062>
- 12.Договор об Учреждении Евразийского Экономического Сообщества – <http://www.kremlin.ru/supplement/3402>
- 13.Treaty on the Non-Proliferation of Nuclear Weapons, adopted on 1 July 1968 – <file:///C:/Users/acer/Downloads/1968-Treaty-On-The-Non-Proliferation-Of-Nuclear-Weapons.pdf>
- 14.Convention on the Prohibition of the Development, Production, Stockpiling and Use of Chemical Weapons and on Their Destruction, Paris 13 January 1993 – https://www.un.org/en/genocideprevention/documents/atrocities-crimes/Doc.42_Conv%20Chemical%20weapons.pdf
- 15.1985 Vienna Convention for The Protection of the Ozone Layer, Vienna, Austria 22 March 1985 – <https://cil.nus.edu.sg/wp-content/uploads/2019/02/1985-Vienna-Convention-for-the-protection-of-the-ozone-layer.pdf>
- 16.Г.О. Васильевна. Международно-правовые и внутри государственные меры содействия исполнению

международных договоров. № 4 (24) 2011 г. Вестник
Института законодательства Республики Казахстан. –
ст. 209